

econfseries.com



30th March, 2025

Jakarta

INDONESIA

2025

**International Conference
on Medical Science,
Medicine and Public Health**



E CONF SERIES



2025: ICMSMP MAR

Articles

1. CHARACTERISTICS OF DIABETIC NEPHROPATHY IN PATIENTS WITH DIABETES MELLITUS
Rahmatullayeva G. K., Ubaydullayeva M. A., Axmedova N. A (Author)
1-2
2. АНАЛИЗ МАЛЫХ ЖАНРОВ ФОЛЬКЛОРА И РАСКРЫТИЕ ИХ ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ
Рузметова Озада Рузметовна (Author)
3-7
3. EFFECT OF STIMULANTS ON DRY MASS WEIGHT OF CROTALARIA JUNCEA
Berdikulov Khudoyshukur Keldiyorovich, Khushnazarova Nurpari Dilshodjon qizi (Author)
8-11
4. ХИРУРГИЧЕСКОЕ ЛЕЧЕНИЕ ХРОНИЧЕСКОГО ОСТЕОМИЕЛИТА
Гафуров Миржалол, Хайруллаев Муҳаммад (Author)
12-13
5. ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПРИ ИСПОЛЬЗОВАНИИ КОМПЛЕКСНОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ФОРМИРОВАНИИ МЕТАКОГНИТИВНЫХ УМЕНИЙ
Носирова Раъно Хамидовна (Author)
14-25
6. DIFFERENTIATED LEARNING: THE CONCEPT, TYPES AND FORMS
Teshabayeva. Zamira Sobirovna (Author)
26-30
7. МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ХАРАКАТЛИ О’ЙИНЛАРНИ ТАШКИЛЛАШТИРИШ, ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАРДА АХЛОҚИЙ ВА ИРОДАВИЙ СИФАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ
Kodirova Muyassar Eshmamat qizi (Author)
31-34
8. РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ У ДЕТЕЙ
Хидоятова Нигора Авазовна (Author)
35-52
9. ESHITISHIDA NUQSONI BO’LGAN BOLALAR MAKTABIDA GRAMMATIKANI O’QITISHNING MAZMUNI
Zukurboyeva Muxlisa (Author)
53-56
10. FOREIGN EXPERIENCE IN FINANCING SMALL BUSINESS ENTITIES
Aimurzaeva Gulnaz Puharbaevna (Author)
57-64
11. ECONOMIC ESSENCE AND CONTENT OF FINANCIAL SUPPORT FOR SMALL BUSINESSES
Aymurzaeva Gulnaz Puxarbaevna (Author)
65-72
12. TIBBIYOTDA WEB SAYTLAR YARATISH VA ULARNING AHAMIYATI
Xakimova Dilbarxon Salohiddin qizi (Author)
73-77
13. ANALYSIS OF THE CURRENT STATE AND POTENTIAL OF THE USE OF TOURIST RESOURCES IN SAMARKAND REGION
Nargiza Abduvakhidova Akbardjonovna (Author)
78-82

14. **MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (KVEST TEXNOLOGIYASI MISOLIDA)**
Urmonova T. I. (Author)
83-90
15. **VINTSIMON HARAKAT QILUVCHI SHARNING BARABAN ICHIDAGI MURAKKAB HARAKAT TEZLIGINI ANIQLASH TENGLAMALARI**
Ruzibayev Alisher Norqulovich, Ismatov Adhamjon Alibek o'g'li, Turonov Eldor Zafar o'g'li (Author)
91-95
16. **РЕКОНСТРУКЦИЯ СУЩЕСТВУЮЩЕГО ЖИЛОГО ДОМА RECONSTRUCTION OF AN EXISTING RESIDENTIAL BUILDING**
PhD -Д.Ш.Рахматжоджаева (Author)
96-99
17. **THE EFFECTIVENESS OF THE RECONSTRUCTION OF RESIDENTIAL BUILDINGS**
PhD student D.Sh.Rahmatxo'jayeva (Author)
100-106
18. **ЗНАЧЕНИЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ГРАЖДАНСКОГО ПРАВА В АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИЦЕЯХ МВД РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**
Эшов Намоз Саноккулович, Республики Узбекистан, Ли Юрий Михайлович, Республики Узбекистан (Author)
107-111
19. **MAKTABGACHA YOSH BOLALARNI TAFAKKURI, MANTIQIY FIKRLARINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK O'YINLARNING KREATIVLIGI**
Mutalova Dilnoza Abdurashidovna (Author)
112-117
20. **MAQSUD SHAYXZODANING TOSHKENTNOMA DOSTONI**
Elmurodova Hamidillo Otabek o'g'li (Author)
118-122
21. **MAKTABGACHA TAYLIM TALABALARIDA KASBIY-KREATIV KUNIKMALARNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI**
Ismanova Ma'мура Абдумуниновна (Author)
123-131
22. **ГОЛШТИН ЗОТЛИ СИГИРЛАР РЕПРОДУКТИВ ФАОЛИЯТИНИ РАФБАТЛАНТИРИШДА ОЗИҚАВИЙ ҚЎШИМЧАЛАРНИНГ РОЛИ**
Ҳ.С.Ўринов, О.У.Кулдашев (Author)
132-137
23. **MULKNI DAVLAT TASARUFFIDAN CHIQRARISH YO`LLARI VA USULLARI**
Mansurova Nilufar Nizom qizi (Author)
138-142
24. **CHANGES IN LITHOPHILIC ELEMENTS OF SOIL ON VARIOUS BACKGROUND OF MINERAL FERTILIZERS IN AGROCENOSIS OF TRITICALE**
Makhmadiyev Samad, Makhkamova Dilafuz, Nematullaeva Lobar (Author)
143-146
25. **THE MUSICAL CULTURE OF STUDENTS THE IMPORTANCE OF FOLK ORAL CREATIVITY IN ITS RISE**
Rakhimov Ravshan Naimovich (Author)
147-151
26. **ISLOMIY MOLIYA XIZMATLARINI FINTECH SOHALARDA XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA QO'LLALINISHI**
Pulatova Moxira Baxtiyorovna, Abdivahob Sheraliyevich Qulmamatov (Author)
152-156



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th March, 2025

**MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY
QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (KVEST
TEXNOLOGIYASI MISOLIDA)**

Urmonova T. I.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Maktabgacha ta’lim pedagogikasi” kafedrası o’qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarining o’ziga xos jihatlari, ularni rivojlantirish tamoyillari, yo’nalishlari hamda texnologiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, kvest o’yin texnologiyasini qo’llash orqali bolalarda ijodiy qobiliyat va ijodkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari sharhlanadi.

Kalit so’zlar: maktabgacha yosh, ijodiy qobiliyat, ijodkorlik, kvest o’yin texnologiyasi, tamoyillari, yo’nalishlari, kvest topshiriqlari, ruhlanish.

Annotation:

This article analyzes the peculiarities of their creative abilities in preschool children, the principles, directions and technologies of their development. Also, the possibilities for the development of creative abilities and creativity in children are commented on by the application of Quest game technology.

Keywords: preschool age, creative abilities, creativity, Quest Game Technology, principles, directions, quest assignments, spiritualization.

Аннотация:

В данной статье будут проанализированы особенности творческих способностей дошкольников, принципы, направления и технологии их развития. Также комментируются возможности развития творческих способностей и творческих способностей у детей с помощью технологии квестовой игры.



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th March, 2025

Ключевые слова: дошкольный возраст, творческие способности, креативность, технология квестовых игр, принципы, направления, квестовые задания, одухотворенность.

KIRISH.

Ma'lumki bolalar o'rganish va ta'lim jarayonini o'ta murakkab, qiyin faoliyat deb qabul qilishadi. Bu ayniqsa, quruq materiallar, faktlar, oddiy hikoya qilish va so'zlab berishdangina iborat bo'lib qolsa bola uchun o'ta zerikarli jarayon hisoblanadi. Bolalar rivojlanishning dastlabki bosqichida o'rganishga qiynaladilar. Tabiiyki, ular o'rganishdan ko'ra oddiy o'yinlarni afzal ko'rishadi. Bolalarni ta'limiy jarayonlariga qiziqtirish uchun o'yindan keng foydalanish zarur. Chunki, aynan shu o'ynlar orqali bolalarda berilgan muammoni yechish, yechimni topish uchun biror - bir shartni bajarish, shartni bajarish davomida ta'limiy masalalarni bajarish juda qiziqarli, zavqli kechadi. O'yindagi qahramonlar o'z navbatida bolalarning ruhiyatiga juda katta ta'sir qilishi va keng dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda keng qo'llanilayotga texnologiyalardan biri kvest texnologiyasidir

Kvest - (inglizcha "QUEST" "muammo", "izlanish", "sarguzasht" degan ma'noni anglatadi) hikoya mazmuniga ega sarguzashtli interfaol o'yin (inglizcha "Adventure game") uning ishtirokchilari belgilar orqali harakatlanib, topshiriqlarni topadi va bajaradi. Kvest o'yini - bu bolalarning kognetiv qiziqishini va muammolarni ishtiyoq bilan hal qilish istagini faollashtirish hamda ijodiy imkoniyatlarini ochish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadigan eng samarali va o'ziga xos ta'lim texnologiyadir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi hamma vaqt dolzarb masala bo'lib kelgan. Bu borada E.G'oziyev, Z.N.Nishonova, T.L.Xurvaliyeva, Z.S.Teshabayevalar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarni e'tirof etish mumkin. Xorijiy mamlakatlarda L.S.Vigotskiy, V.S.Drujinin, V.A.Kan-Kalik, A.N.Leon'tev, D.B.Bogoyavlenskayalarni misol tariqasida keltirish mumkin.



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th March, 2025

Ijodkorlik – insonning ijodiy qarorlar qabul qilish, tushunish va tubdan yangi g'oyalar yaratish qobiliyatidir. Yoki, keng ma'noda noodatiy yechimlar topish qobiliyatidir. Bu borada I. Ya. Lerner: "Ijodkorlikka o'rgatish mumkin, ammo bu ta'lim maxsus, ular odatda bilim va ko'nikmalarni o'rgatishlari bilan bir xil emas" – deb xisoblaydi.

Ijodkorlik qobiliyatdan ko'ra kengroq tushuncha bo'lib, jamiyat uchun yangi, qimmatli narsalarni yaratishni o'z ichiga oladi, bu orqali inson o'zini qobiliyatlarini rivojlantirish va o'zini anglashi tushuniladi.

Ijodkorlik qobiliyatini psixolog P.Torrens ijodkor shaxslarga bo'lgan umumiy ehtiyoj doimiy o'sish va rivojlanish zarurati ekanligida, deb ta'kidlaydi. Bu borada T.S. Komarova esa bolalar ijodiyotini, subyektiv ravishda yaratgan (chizma, modellashtirish, hikoya, ertak, qo'shiq, bola tomonidan ixtiro qilingan o'yin) yangi mahsulot va jamiyat uchun obyektiv ahamiyatga ega bo'lgan, bolaning aqliy rivojlanishi shaklida olingan ta'sir ijodiy faoliyat jarayoni, deb baholaydi.

Shuni ta'kidlash joizki, psixolog E.G'oziyev, ijodiy faoliyat iqtidorning ajralmas qismi hisoblanib, bunda ruhlanish deb nomlangan psixologik holat alohida ahamiyat kasb etadi. Ruhlanish esa faoliyat mahsuldorligini ortishiga qaratilgan ijodiy lahzadan iboratdir deb hisoblaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda esa aynan ana shu ruhlanish - ijodiy laxzani "tutish" juda muhim. Bu jarayonni esa bo'laga zavq-shavq beruvchi, ichki imkoniyatini uyg'otishga yordam beruvchi metod va texnologiyalardan keng foydalanish joiz.

Bolalarga ta'lim-tarbiya berishda Kvest texnologiyalari 1995 yildan keng qo'llanila boshladi. San-Diyegolik professor Berni Dodj o'quv jarayonida ma'lum qidiruv tizimidan foydalanishni taklif qilganidan so'ng, har birida oraliq bosqichlarni bosib o'tishda muammoning yechimini topish kerak boladigan o'yinli-sarguzashtli texnologiyadan keng foydalanila boshlandi. Maktabgacha talim tashkilotlarida yoki maktab yoshidagi bolalar uchun ishlab chiqilgan kvest texnologiyalari, kvest janridagi kompyuter oyinlari asosida yaratilgan. Umuman olganda, qidiruv texnikasi ushbu texnologiyaning asosi hisoblanadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bola maqsadga (oldiga qo'yilgan muammoni yechish) erishish uchun ertak qahramoni, boshlovchi yoki pedagog tomonidan oldiga qo'yilgan o'yin usulidagi sahnalashtirilgan senariy asosidagi ma'lum bir shartni bajarishi kerak bo'ladi. Bolaga berilayotgan shartlar ta'limiy ahamiyatga ega bo'lishi va uning ijodiy yaratuvchanlik qobiliyatini rivojlantirishga yordam berishi kerak. O'yinda bola yoki bolalar guruhi tomonidan birinchi shart bajarilgandan keyingina keyingi bosqichga o'tiladi. Keyingi bosqichga o'tish uchun esa biron - bir harakatni amalga oshirish yoki kalit topish talab etiladi. Bu texnologiya bolalarda ta'limiy jarayonni o'yin-sarguzasht faoliyati orqali bilishga qiziqtirish, o'z ichki imkoniyatini ko'rsatib berish ehtiyojlarini o'stirishga qaratilgan.

Shuni ta'kidlash joizki, bolalarda qahramonliklar qilish, muammolarni mustaqil hal etish, shaxsiy jasorat ko'rsatish xislari erta uyg'onadi. Kvest-sarguzashtlardagi qaxramonlarning rolini bajariy bolalarda zavq- shavq uyg'otadi.

Kvestlar bolalarga tajriba qilish, yangi bilimlarni tahlil qilish, ularni ma'lum bir belgi asosida birlashtirish, kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish va ijodiy qobiliyatlarini o'stirish imkonini yaratadi. Maqsadga erishish uchun bolalar bir biriga bog'langan ma'lum bir topshiriqlar, jumboqlar, mashqlar yoki topishmoqlarni izchillik bilan, ketma ketlikda bajarishlari kerak bo'ladi.

Kvest o'yinlarning maqsadi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning atrof-olam haqidagi bilimlarini, dunyoqarashini o'stirish, muammoli vaziyatlarga mustaqil yechim topish hamda kommunikativ laqatlarini rivojlantirishdan iboratdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kvest o'yinlarni muvaffaqiyatli tashkil etish va o'tkazishning asosiy sharti bu – bolaning individual rivojlanishi, yosh xususiyati va imkoniyatlarini xisobga olgan holda aniq mazmunli, topshiriqlarni ishlab chiqish va sharoitni yaratishdir. Jamoa bo'lib topshiriqlarni bajarishda bola o'zini shu jamoaning ajralmas bir bo'lagi ekanligini, o'zining jamoaga kerakligini sezib turishi, o'ziga ishonishi va mustaqillikni deb xis qilishi kerak.



Kvest o'yinlarini tashkil etishning tamoyillari:

1. Bolaning huquqi, individualligi va rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olish. Barcha bolalar katta imkoniyat egasi bo'lib dunyoga keladi va har biri tug'ma iste'dodga ega. Har bir bola o'ziga xos individualdir. Barcha bolalar o'z salomatligi va farovonligini himoya qilish, mustahkamlash, shuningdek, sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanish huquqiga ega.

2. Bolaning sog'lig'ini saqlash, mustahkamlash va xavfsiz muhitni ta'minlash. Bolaning turli ehtiyojlarini, shu jumladan, harakatga bo'lgan ehtiyojini qondirish; faol o'yinlar va kundalik jismoniy mashqlar orqali bolalar o'zlarining his tuyg'ularini, yirik va mayda motorika ko'nikmalarini rivojlantiradilar; harakatda atrof-olamni o'rganadilar va turli predmetlarni boshqaradilar; o'z tanasining ta'sir va imkoniyatlarini farqlay oladilar, unga g'amxo'rlik qilishni va sog'lom turmush tarzini qabul qilishni boshlaydilar.

3. MTTning oila, mahalla, maktab bilan hamkorligi. Bolaning farovonligi uning oila a'zolari va yaqinlarning MTT ahamiyatini tushunishiga bog'liq. Ota-onalar va mahalliy hamjamiyat o'quv dasturida ta'lim va tarbiya jarayoniga qatnashishga jalb qilinganda va o'z hissasini qo'shganda bolalar yaxshiroq ta'lim oladilar va rivojlanadilar

4. Izchillik tamoyili.

5. Dinamiklik. Oddiydan murakkabga qarab o'sib borishlik. Berilayotgan jumboqlar bir-birini to'ldirish bilan bir qatorda, asta sekin murakkablashib borishi kerak.

6. Emotsional quvonchga yo'g'rilganlik tamoyili. Topshiriq, jumboqlar bolaga zavq-shavq berishi, xissiy bardamlikni hosil qilishi kerak.

7. Vaqtни to'g'ri tanlash tamoyili. Tanlangan vaqt bola uchun qulay, oqilona bo'lishi kerak. MTTning kechki soati yoki haftaning birinchi kuniga rejalashtirmagan maqul.

8. Integratsiyalashganlik tamoyili. Har bir olingan topshiriq va jumboqlar uzviylikni taminlashi kerak.

9. Yakuniy natijani aniqligi tamoyili. Qaytar aloqa vaqtida bolaning kerakli bilimlarni egallaganligiga, zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirganligi. Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini kvest o'yinlar orqali rivojlantirishning quyidagi yonalishlarini ko'rsatish muhim:

- Bolalarda estetik dunyoqarash va ijodiy izlanishni rivojlantirish;



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th March, 2025

- Turli materiallardan, shu jumladan konstruktor, modul, qog'oz, tabiiy va boshqa materiallardan qurish-yasash;
- Tasviriy (chizish, loydan yasash, applikasiya, kollaj);
- Musiqiy (musiqiy asarlarning ma'nosini idrok etish va tushunish, qo'shiq aytish, musiqiy va ritmik harakatlar, bolalar cholg'u asboblari chalish);
- Ijodiy fikrlash jarayonini o'stirish(yaratilgan sun'iy muammolarni topqirlik bilan yechish, mustaqil yo'l topish, yangi yechim ishlab chiqish, noodatiy yondoshuvni taklif etish);
- Olingan bilim va ko'nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o'z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanish malakasini rivojlantirish;
- Insonning dunyoni o'zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunish;
- Jamoada ishlash orqali kommunikativ layoqatni tarbiyalash.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladigan kvest o'yinining davomiyligi odatda mujassam mashg'ulot sifatida tashkil etiladi va u quyidagi davomiylikdan iborat bo'ladi:

- maktabgacha yoshdagi kichik bolalar uchun 20- 25 daqiqa;
- o' rta guruh tarbiyalanuvchilari uchun 30 - 35 daqiqa;
- katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun 40-45 daqiqa.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan kvest o'yinlarni tashkil etishda qog'ozli shaklli, "Sehri kalava", "Xarita", "Sehri ekran", "Izlar", "Kvest charxpalak", "Mantiqiy karusel" ko'rinishlaridan foydalanish mumkin.

Ko'rib chiqilayotgan muammo doirasida maktabgacha katta yosh tarbiyalanuvchilari ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlarini shakllantirishi bo'yicha quyidagilarni keltirish mumkin:

- maktabgacha katta yosh tarbiyalanuvchilari ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning pedagogik - psixologik asoslarini ishlab chiqish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalaridan keng foydalanish;
- ta'lim jarayonida pedagog va bolalar o'rtasidagi muloqotning ustunligini xisobga olish;
- maktabgacha katta yosh tarbiyalanuvchilari ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning rivojlantiruvchi muhitini va ijodiy faoliyatini tashkil etish hamda rag'batlantirishni xisobga olish;



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th March, 2025

-bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi metodik qo'llanmalar, tavsiyalar va o'yin hamda texnologiyalarning yangi avlodini yaratish, takomillashtirish;

-maktabgacha yoshdagi bolalar bilan kvest o'yinlarini turli ko'rinishlarini tashkil etishda maktabgacha ta'lim tashkilotlari yosh guruhlarining rivojlanish markazlarida mos ravishda qo'llash.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish xamma vaqt ham dolzarb bo'lib kelgan. Chunki ijodkor shaxsgina jamiyatda tub islohotlar qila oladi, ulari farovon hayotga yetaklaydi. Bunday fazilatlar esa bolaning ilk davridan boshlanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida turli hil texnologiyalardan foydalanish esa maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy

qobiliyatlarni rivojlantirishda asosiy shartlardan biri bo'lib xizmat qilishi kerak.

Shuni esda tutish kerakki, har bir bola noyob, o'ziga xos tarzda iqtidorli sanalib, unung ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoniga qanchalik ko'p qiziqish bildirsa, bolaning kelajakda yetuk shaxs bo'lish va zamonaviy jamiyatga osonlik bilan moslashish, unda muvaffaqiyat qozonish imkoniyati shunchalik yuqori bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (Takomillashtirilgan ikkinchi nashri) T.: 2022
2. E.G'oziyev. Psixologiya. –T. 2000 y.89-91 b.
3. O. A. Maxmudova, Z. S. Teshabayeva. Yosh bolalar uchun ijodiy san'at. Darslik. – T.: "ZEBO PRINT", 2024.
4. М.И. Матюлевич. Квест-игра по профориентации для учащихся 5-7 классов. «Профессии вокруг меня» М.И. Матюлевич П -2020г.стр.3-4
5. Егорова И.В. Квест игры . Методические рекомендации. М -2020 г. Стр. 6-8
6. Протасова О. Квест – игра «Пятый элемент». Поисково-познавательная игра в форме экспериментальных действий. М-2020. стр-8-9
7. Лернер И. Я. Дидактические основы методов обучения .М.Педагогика, 1981. – 116 с.



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th March, 2025

8. Турдиева М. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'rni //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

9.Urmonova T.I. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish texnologiyalari. Maktabgacha va maktabta'limi jurnal.2025 y.13.02.436-438 b.